

MEHRGA TASHNA NURLI QUYOSH

Salamat Avezov

«SA.KR.UZ» SHAXSIY VEB-SAYTI

14 avgust 2016 y.

Ishlab chiqqan: «SA.KR.UZ» shaxsiy veb-sayti
Nukus «QORAQALPOG'ISTON – 2016»

MEHRGA TASHNA NURLI QUYOSH



Avrallari bunday shafqatsiz nigohlar, bee'tiborsizlik, bepisandsizlik, o'zlarining saflaridan joy bermaslik, menga judayam og'ir botgan bo'ssayam atrofimda bobolarim, buvalarim, ota-onam, akalarim, opalarim, ammalarim, xolalarim, amakilarim, tog'alarim, pochchalarim, ikki singlim, ukajonim va jivanlarimning bitta chimidim mehribonchiligi, mening tilimni va dilidan tushunadigan odamlar borligini anglashimga qalbimdan his qilishimning o'zi baxt emasmi.

Salamat Avezov

Salamat Avezov

**MEHRGA TASHNA
NURLI QUYOSH**

Mening qadrdon kitobxonim _____

*Dunyodagi barcha ozgu tilaklar va mehrga mush'tok
yuraklarga poklik va xotirjamlik armugon bo'lsin!!!*

Zadrdonningiz Salamat.

AeeeeeeB= _____ yil

NUKUS
«QORAQALPOG'ISTON – 2016»

Qadrli muhtaram kitobxonlar!

Quyosh nuri. har kimning yuragining to'rida quyosh mehri bor. O'sha mehr quyoshi pok insonlarni ko'rgan paytda qalb jiringlaydi, kemptik qalbli insonlarga nazarimni tashlaganimda, dardlaridan sekin xo'rsinayotganday bo'ladi. Nogironlik unvonini yuraginga mixdek qoqib quyganga o'xshaydi. Qancha dod faryod solib qichqirishsa ham yo'qolmaydi. Mehr quyoshi shu yuraklarda ham porlaydiku. Hayot shirin va go'zal ne'mat. Inson umri davomida hayotdan shirin va go'zal ne'matdan bahra olsam deydi. Uning quvonch va tashvishlarini ko'radi, achchiq cho'chigini tortadi. Benobarin, umr yo'llarida ko'p narsa uchraydi insonga. Gohida shodlikdan masrur bo'lsa, gohida boshiga musibat tushadi, dunyoniig eng og'ir yukini elkasiga, ko'ksiga dard unvonini kimdir taqib quygani kabi ko'tarib yurganday. Chunki buni hayot deydilar. Hayotda hamma narsa bo'lishi mumkin... Muchasi kemptik ko'ngli o'ksik qalbli insonlar ham hayotning quvonchlarini ko'rishni beg'uborlik hissini tuyish dildan his qilishni kimlar xohlamaydi deysiz. qator-qator farzandlari dunyoga kelganida baxtdan quvonadi.

Shularning kamolini ko'rishni dil-dilidan istaydi. Nogiron farzand dunyoga kelganida quyosh ham shu oilaga zarrin nurlarini beedad sochayotgandek tuyiladi. Uning samimiy tabassumi qalblarga shodlik o'rnini qayg'u g'amni hadya etadi. Ammo ba'zilar dunyoga taklif qilib, quvilmagan mehmon singari his qilishlari meni taajjubga soladi.

Dardlarining shifo damlari nasib qilarmikan qani edi kichkina bo'lsayam umid uchqunini ko'ra olsam deganlar oramizda kammi.

Afsus... Hayotda shodlik va qayg'u, dard hamisha yonma-yon yasharkan. Biz odamlar hayotimiz davomida, asosan, nimadan qiynalamiz, dardimizga ko'milib aziyat chekamiz, eng bebafo boylik — sog'liqni boy beramiz?. "Yo'qotganimni topdim" deymiz-u, shodlik o'rnini ham tashvishlarga cho'milamiz.

Hayotdan noumid emasman, bu gap qalbimda umid chirog'ini yoqilgan shamchiroq. Zimmamizda ana shunday ulkan ishonch turganini his qilib yashash ulkan mas'uliyat. Kitobxonlarga quvvat bo'ladigan, mador va najot beradigan malham so'zlarini qalblarni titratda umidvorlik baxsh eta olsam ajabmas...

MUALLIF

Mehrga tashna nurli quyosh



Insoniyat bu olamda mavjud ekan, Har birimiz mehr tuyg'usiga chanqab turgan mehringizga qonib tuysam deydi. Minglab insonlar orasidan shu mehrni so'zini izlab mushtoq bo'lib yashaydilar. Mehr oqibatning ilohiy tuyg'usidur, shu so'zni har bir inson yuragining to'rida shinamgina joy egallab kezi kelganida yaxshi insonlarni bag'rige bosib bir-birlariga ularshadilar. Insonni bu dunyoda ikki narsa - mehr va qadr tutib turadi.

Shu to'rtdagina harif butun olamni, kurrai zaminni insonlarning bir-birlariga bog'lab turuvchi ipidur. Hech bir so'z yo'qki undan ustun bo'lmasa, butun vujudingni junbishga solib, ko'z yoshlarni qalqitib chiqaradi.

O'z mehrini o'zgalarga ulashish ham katta iroda va matonatni talab qiladi, lekin shunday insonlar borki atrofimizda, o'z mehrini o'zi uchun qizg'anadigan, hattoki atrofdagilarning mehr ulashuvini ko'rolmaydigan, o'zidan ortmaydigan insonlar mening yonginamda borlar. Bunday insonlarning qalbida yaxshilik, ezhulik, mehr-muhabbat, oqibat va diyonat so'zlarni ongu tafakkuriga butunlay singdirolmaydigan insonlar judayam bisyor. Shunga qiyos insonlarni har birimiz ko'ramiz va yoki birortamiz ulardan birimiz...

Qiziq, «Oradan mehr-oqibat ko'tarildi». Katta-kichik davralarda, to'y-yu, hashamlarda bu iddaoga tez-tez duch kelamiz. Beixtiyor dilimda bir savol tug'iladi: mehr-oqibatning manzili bormikin? Agar bor bo'lsa u qaysi qalb tubida joylashgan ekan, u qaerda?

Shunday olijanob mehr daryosi ummon kabi insonlar oramizda borki, hech qachon mehrni qizg'onish nima ekanini ongiga teran singdirilgan. Bu dunyoda unday insonlarning oqibatni va diyonatni o'ziga shirin bir so'z deb kalbiga qizdirilgan temir singari shakllantiradi. Mehr va yaxshilik urug'i esa nurli quyosh kabi unub buriktiradi. Mehrga tashna nurli quyoshini yaxshilik urug'i bilan unub o'sadi.

Mehrni har kim, har xil tushunadilar, inson bu dunyoga kelishining o'zi ham bir mo'jizadir, endi onadan tug'ilgan mittigina bola ham usha paytidan boshlab shakllana boshlaydi, men dunyoga keldim deb yig'lay boshlaydi olamga jar solib birinchi iliq nafas chiqaradi, keyin esa onasining iliq kaftilar bilan qo'liga olib, issiq bahriga bosib mehr ko'ziga karab onasiga jilmayadi.

Ammo... insonlar orasida muchasi kemtik ko'ngli o'ksik nogiron onalarimiz ham bor. Shu tariqa Internet saytlari orqali namoyish qilingan qo'lsiz ona haqidagi aqlbovar qilmas tasvirni ko'pchilik ko'rgandir. Qo'llari yo'q ona ikki oyog'i bilan go'dagini ovqatlantiradi, yuvintiradi, kiyintiradi, tagligini almashtiradi. Borib bozor-o'charini qilib keladi. Hattoki, oyoqlari bilan bolasini uqalab ko'yadi, o'ynatadi. Farzandi unib-o'sishi uchun butun imkoniyatini ishga soladi. Uning fidoyiligini ko'rib, onalarga berilgan mehr-muhabbat tuyg'usining qay darajada buyukligiga amin bo'ladi kishi.

Nogiron bo'lishiga qaramay, onalik vazifasini sidqidildan uddalayotgan bu ayol to'rt muchasi sog', bardam-baquvvat onalarga matonat darsidan katta saboq berayotganini angladim.

*Sizga bo'lsin hush tilaklar, harki sog'liq va omad sizgadir,
Sizga bo'lsin ziyo-nuru, ma'rifatu, ma'naviyat sizgadir.
Sizga bo'lsin mehr bo'lagi-yu, qadru-qimmat sizgadir,
Sizda qolsin bitta chimdim mehrim, odamlardan oqibat!!*

Avvallari bunday shafqatsiz nigohlar, bee'tiborsizlik, bepisandsizlik, o'zlarining saflaridan joy bermaslik, menga judayam og'ir botgan bo'lsayam atrofimda bobolarim, buvalarim, ota-onam, akalarim, opalarim, ammalarim, xolalarim, amakilarim, tog'alarim, pochchalarim, ikki singlim, ukamjonim va jiyanlarimning bitta chimdim mehribonchiligi, mening tilimni va dilidan tushunadigan odamlar borligini anglashimga qalbimdan his qilishimning o'zi baxt emasmi. Shu bois men hech qachon odamlardan o'zimni o'zgalardan olib qochmayman, hech qachon. Har qanday holatda ham hech qachon qochib ketmayman.

Darhaqiqat, bitta chimdim mexrim, odamlardan oqibat ўolsin deymiz. Ammo, shiddat bilan o'tayotgan davrda insonlar qaergadur shoshib ketayotgandek go'yo nazarimda, bir-birilariga bee'tiborlik, mehr-oqibatsizlikni o'ziga yod ko'radigan, kibr va hayoni, razillikni o'ziga eng yaqin so'z deb biladigan odamlarni ko'rsam, ularga achinarli nigohim bilan qiyo boqaman.

Ko'p odamlarning orasida bo'lganim bois qulog'imga shunday gaplar chalinib qoladi. Zamon o'zgardi deydi odamlar mehr quyoshini o'zgalarga soya solmoqda, osmonni qora bulut qoplagani kabi, insonlarning qalbida ham qora bulutlar sahro kemasiday suza boshladi.

Shu onlarda usha insoniylik hissini o'zimizdan qidirishga o'rinxaymiz, hattoki harakat qilib ham ko'rinxaymiz, o'zimizcha dunyoning mushkul ishi deb o'z-o'zimizga taskin berib bepisandlik bilan ko'ra bila turib jimgina o'tib ketaveramiz. Mana shu insoniylikga xos to'g'ri keladi deb o'ylaysizmi, aslo yo'k unday insonlarning odamiylik fazilatlari mehr qalbida kurtak ochmagan.

Osmonlarga termilib Allohdan so'rayman, shunday odamlarni berginki, mehr quyoshi aslo botmasin deyman.

Shu jumladan, Alisher Navoiy butun hayoti va faoliyatini insonning mehr-oqibatli, baxt-saodati, xalqning farovonligiga o'zini bag'shiyda qilgan ulug' zotdir.

*Xub el bilan suhbat tutubon xub o'lg'il
Yaxshini talab qilg'ilu matlub o'lg'il*

Navoiy iymon, insof, diyonat, saxovat, muruvvat kabi insoniy qadriyatlarga hamisha amal qilib yashadi va e'zozladi. Boshqalarni ham shunga undadi.

Insonlar bir-birlaridan mehrni darig' tutmasinlar deyman o'zimcha. Bu dunyoda hamma narsa o'tkinchi, mol-dunyo, sog'liq, amal, lekin mehrga tashna nurli quyosh esa har tongda jilmayib chiqaveradi, insonlarda esa mehr-oqibat o'lmaydi. U insonlarni birlashtiradi, ezgu ishlarga chorlayveradi...

Mehr bo'lzin yor

*Qushga parvoz uchun kerakdir qanot,
Bulbulning umirini bezaydi bayot,
Insonga baxt uchun berilur hayot,
Ko'ngil naqshi erur bilsang gar sabot.*

Yuragingda asra mehrigiyoni

*Tinma hech, izlagin bilim – ziyoni,
Yomonlikni unut, unut riyoni,
Qo'lingdan kelsa gar gullat dunyoni*

Bu – ko'hna bozordir, xaridori – biz.

*Yaxshilar qoldirgay o'zidan bir iz,
Ey, inson, ezgulik shodasini tuz,
Tog'lar ham cho'ksinlar poylaringga tiz.*

*Vaqt oliy hakamdir, boshqasi bekor,
Do'stu yor bor joyda boshqa ne darkor,
Aytgayman hamisha takror va takror:
«Ko'ngilga hamisha mehr bo'lzin yor!»*

Nodira Husainova
Urganch shahri

Qalb maktubi



*Dunyoda siz hech kim bo'lmasligingiz mumkin,
Lekin kim uchundur butun dunyosiz.*

*Negadir har safar shu misralarni o'qiganimda
qalbimda tushunib bo'lmas g'ururga burkagan ajib
hislarimni tug'yon yuragim xafliqib uradi. Nogiron
bolajonlar, yigit-qizlar! Shu so'z zamirada dunyoning
eng og'ir yukini elkasiga, ko'ksiga dard unvonini
kimdir taqib quygani kabi ko'tarib yurganday go'yo.*

O'zgalardan o'zlarini olib qochib ortiqcha his etib, ojizlik va beg'uborlik tarovatini o'zları uchun begonaday ufurib turganday mening nazarimda, xalaqit berib yashayotganlari uchun atrofdagilardan uzr so'raydilar.

Ona vujudida paydo bo'lган vaqtan boshlab, hamma uni sog'-omon dunyoga kelsin, deb duo qiladi. Umuman aksi bo'lsa-chi?. Erkak ota, ayol ona makomiga yuksak daraja ko'tariladi. Bu inson uchun juda ulkan va aytishga so'z topalmaydigan baxtdir. Nogiron farzand-chi?

Nogiron farzand dunyoga kelganida quyosh ham shu oilaga zarrin nurlarini beedad sochayotgandek tuyiladi. Uning shiringina samimi tabassumi ?alblarga shodlik o'rnini qayg'u g'amni hadya etadi. Ammo ba'zilar dunyoga taklif qilib, quvilmagan mehmon singari his qilishlari meni taajjubga soladi.

«Eh, inson zoti», deya buro-buro gapiradigan, tonggi shudring misoli pok, benazir soddalik sohib va sohibalar dil payvandi bo'lган bolajonidan o'ksinishadi. «Shu o'rinda, Allohim farzandimni hamma qatori sog'lom yaratsan bo'larmidi» degan zardarli achchiq,sovuk gaplari esa mehrga mushtoq bolalarning ko'ksiga toshdek botadi. Mehr tilab titrab turgan lablari, ko'zmunchoqday pirpiratib turgan ma'yus tortgan qora ko'zları, mo'ltirab turgan nigohlariga qarab ko'ngil oynasini chilchil sindiradi.

Nogiron bo'lib dunyoga kelishning, nechukdir aybdor sezadilar, qimtinadilar nechuk aybli va achchiq qismat ekanini qaysi sog'lom inson yuragidan his qilar ekan. Ularning nima aybi bor? Nima uchun chuchmomodek endigina barg urib ko'karayotgan nozik qalbli, muchasi kemtik ko'ngli o'ksik insonlarni saflaridan chetlatadilar, nima uchun oftobdek porlab turgan yuzlariga qarashga tashqi kiyofasiga betinishga or qiladilar. Shu she'riy qotarlar yordamida bir ko'ngli o'ksik insonning qalb maktubga yozilgan satrlar singari ichki kechiramalarin to'liq ko'rsata bilgan.

*Derazamning oldidan ma'yusgina boqaman,
O'tgan ketgan yigit-qizga havas qilib qolaman.
Nima edi gunohim, ne edi meni aybim,
To'shakka mihlanib men yolgiz qoldim Allohim.*

*Yakka qolmay o'zim deb men chiqaman ko'chaga
Itarishar ko'ksimdan nogiron deb bolalar asta chekkaga.
Men ham sendek bolaman, goh yiglab goh kulaman
Sen yurasan men faqat aravamda ma'yus qolaman....*

Axir, nogiron bola ham farzandku?! Shu ko'zmunchokdek bolalangiz vaqt kelib o'z intilishlari sa'y-harakatlari bilan hayotga bo'lgan ishonch va umid tilsimini qalbiga singdirib, asta sekinlik bilan qadini tiklar. Nima uchun farishtadek ma'sum va ma'sumalarni o'z nazarlariga ilishmaydilar?!

Mushtakgina kelagidan yuragida olam-jahon mehr jo bo'lgan farzandingiz ko'zlariga boqing, ana o'shanda u sizga qarab qanchalik talpinilayotganini ko'zlaridan yordam so'rayotganligini ko'rasisiz yoki birortamiz ulardan birimiz shohidi bo'lamiz... Ota-onasining bir og'iz shirin so'zlariga mushtakligini ko'rib g'ayratlanasiz.

Ajab emaski, nogironlarda ko'pincha favqulodda iste'dod sohibi bo'ladi. Shunga yarasha fikr doiralari keng, ko'ngil dunyosi go'zal. Ortida uni qo'llaydigan odamlar borligini his qilgan farzandgina kelajakka yuz tutib, umid nigohi bilan qiyo boqib yaxshi natijalarga erishisi uchun jon-jahdi, ongu tafakkur, aql idroki va zakovati pokiza qalb ila intilishining o'zi katta muvaffaqiyatdir.

Aslida o'zgarlarning bir-birilariga bo'lgan ishonch ma'suligi qalbida joylashtirish ham insonlarning eng yaxshi xislatlarining biri. «Siz, biz, ular bu yorug' olamda hech kim bo'lmassiz, lekin qaysi bir jihatlarining bilan butun dunyosiz» degan samimiy so'zlar va ehtiromlar esa barchamizning ruhlantirib, ruhiyatimizni jilovlaydi.

Hamma ham istirob chekadi ammo, qiyinchiliklardan keyin albatta baxtli damlar keladi. O'qishda, sportda, ishda va boshqa sinovlarda ham xuddi shunday. Aslida hayot shunaqa ekan, agar imtihom dunyosini matonat, mittin iroda va sabr-toqat bilan bosib o'tilsa, narigi tarafida bizni baxtli kunlar nurini sochib qarshi oladi, bunga faqat ishonch va umid bilan intilishdan hech qachon kurashishdan yengilmaslik darkor.

Oddiy bolalar йатори maktabda, kollejda, litseylarda hattoki oliy yurtlarida tahsil olib, boshqalar qatorlaridan ortda qolmaslikka harakat qilib yurgan insonlarni ko'rib taajjubda qoladilar. Chunki bugun mensinmagan, e'tiborlaridan chetlab o'tgan kishilaringiz, vaqt kelib ertaga kim bo'lishlarini bilmaysiz-ku?

Ilm olib, o'zlarining izlanishlari va qo'lga kiritayotgan yutuqlari bilan mamlakatimizning ravnaqiga hissa qo'shayotgan buyuk mutaxassis va kasb kamolotli bo'lib yetishmoqlik o'ziga bir sharof. Yer yuzidagi jamiki insonlarning og'iri yengil qilib, insoniyat olamiga g'oyalari bilan ilg'or so'rib hayotga tadbih qilishlari taqsimlarga loyikdur. Millatni millat qiladigan, millatni ma'rifat qiladigan – bu oqila farzand.

Батанига меҳр-муҳаббат, меҳнатсеварлик билимга, устозларга, маърифат Парварларга нисбатан алоҳида хурмат эхтиром — Инсоннийликка хос улуғ фазилатлардир |

Qalb maktubi, qalblarni titiratib mehr charxpalaqini aylantirib umid uchkunini lovullab yonishi darkor.

Albatta, ўalblarni titratib yashagan insongina anglash baxtiga musharraf bo'ladi. Qalbdagi maktub satrlari yig'ilib-yig'ilib qolgan dilingdagi so'zlarni yurakdan chiqayotgan uchqin gaplarni boshqalarga aytolmagan samimiy is'horini, kishilarga bo'lgan dil ehtiromlarini, ne azob bilan chekkan dardli onglaringni istiroblarga qo'shib bergen bir mushtek yuragingga hammadan sir tutgan ko'ngil tug'yonini hech bo'limganda o'zingga shivirlab ayta olasan.

Qalb maktubiga samimiy dil so'zlarni bitishga na qog'oz, na siyokdon kerak, unga faqat ummon qalbiga mehr va vafo, vijdon tuyg'ularini singdirishga toza yurak kerak. Odamlar keng qalbli bo'linglar, shunda odamlar ham sizlarga shunday bo'lurlar.

Qalbimiz to'la iftixor



«Bugungi kun nafasi dillardagi shukronalik shukuhi tillar ko'shib Yaratgandan so'rab qalbimiz to'la iftixor ila ichichingdan sevinib to'linlanib ketasan kishi».

Iftixorlik shunday narsaki pulga sotib olish iloji bo'lsa. Lekin haqiqiy iftixorni tuymoq ham chin insonniylikka xos fazilatlarning biridir. Chin iftixor to'la qalbni dunyoning butun boyligiga sotib yoki almashtirib bo'lmaydi, haqiqatdan ham iftixorlikga jo bo'lgan har bir kishining qalblarini larzaga solib yuragining to'rida bo'log' kabi so'zlarni tillarda jo bo'lib, ko'zlarida quvonch yoshi ila qalqib chiqadi.

Insonlarni ko'rshagan behisob kishilarning hammasi ham qalb iftixorini yuragidan his etish nima ekanini bilavermaydi. Odamlar o'ziga emas, aslida, jamiyat orasida topgan mol-dunyosi, mansabi, obro'si.... «qalbim to'la iftixor» degan kimsalar qancha.

Iftixor – insonni ruhan poklanish, qalban ulg'ayishga chorlaydigan, odamning ichki dunyosi, irodasini baquvvat, iymon-e'tiqodini butun qiladigan, vijdonini uyg'otadigan beqiyos kuch, uning barcha qarashlarining mezonidir.

Odatda fidoyilik bilan xalqiga xizmat qilib yurgan bag'rikeng insonlar juda ko'p. Mehnat sharofati bilan ularning oilasi, ota-onalari, ertangi kunining vorislari kelajagining ustunni bo'lgan farzandlari iftixorining nishonidir.

Ona zaminimizning tinchlik osoyishtalikning qadri har kimning tilida emas, dilida yoshlarning yurak-yuragidan olayotir. Bugungi yoshlarning ilmda, sportda va boshqa soqlarda erishayotgan muvaffaqiyatlarinining dalilidur.

Insonlarning taqdiri, qiziqishlari jamiyat taraqqiyoti, ona Vatan taqdiri bilan chambarchas bog'liq. Iftixorlik alangasi dillarga jo bo'lib yozilajak har bir so'zlar va samimiy tilaklar ana shu uziylarni butun olamiga yaxlitligi, soddaligu murakkabligi, go'zalligu to'la iftixor bilan ifodalashi, zamondosh hayotining tom ma'nodagi imkoniyatini ko'rsatishi muhim.

Ochiq chehra



Xalqimizda shunday ezgu tilak bor: "Taningiz sihat, umringiz uzoq bo'lsin!". Bu shunchaki manzirat yuzasidan aytishadigan gap emas, balki qon-qonimizga singib ketgan odat, fazilatdir. Odamlarning samimiylar tarzda bir-biriga shunday lutf qilishi bag'rikenglik ifodasi, ko'ngil sofliyi va sog'lom tafakkur belgisi, desak, yanglismagan bo'lamiz.

Ochiq naqadar yoqimli so'z iboralarning biri, qalbimizga xushnud ufiklarning sochib, dillarni nuroqshom qilib, ko'ngil qulflarni kalitsiz ochib, hamni esa ochiq chehra, mehr-muhabbat tuyg'usi kuchli bo'lgan insonlarning yuragi eng asosiysi kechirimli insonlar ijobiy kayfiyatga moyil bo'ladilar.

Bunday odamlarda tabiiyki kelajakka ishonch va umid baxtli hayotga intilish hissi ham barqrordir. Insonlar orasida nogironlar jamiyatimizning ajlarmas bo'g'imi hisoblanadi, sog'lom insonlarga nisbatan qalb tuyg'usi, ochiq nurli chehrali sohib va sohibalari hayotdagi turli to'siq, muammolarni qiyinchiliksiz yengib o'tishga qodir bo'lishadi. Ular to'rt muchasi sog'lardan ko'ra ko'proq shukur qilishni biladilar, chunki qayot mohiyatini teran anglay oladilar va ko'ra bilishadilar. Yana ham qizig'i, yashashning qadr-qimmatlariga ular ko'proq yetadilar...

Biz odamlar hayotimiz davomida, asosan nimadan qiynalamiz, dardimizga ko'milib aziyat chekamiz, eng bebaho boylik — sog'liqni boy beramiz?. Shu paytdagina sog'lom insonlar men kabilalarini ko'z oldilariga keltirisha olarmikan. Hayot bor ekan ikir-chikirlari, yon-atrofdagilar bilan o'zaro munosabatlar, qalbimizga in kurib olgan salbiy hissiyotlar tufayli emasmi?

Salbiy nigohlar va hissiyotlar bu insonlarning bir-birilariga bo'lgan bee'tiborlik, bepisandlik, bemehrlik, oqibatsizlikning asl nusxasi, o'zgalarga erk berib boshqalarga bino qo'yadigan kishi. Odamlar salbiy hislarni o'ziga jo qilib olganki, hayotimiz turmush qiyinchiliklari shuni taqazo qilayapdi deb o'ziga erk berishidan ham toymaydiganlar atrofimizda izg'ib yuribdilar.

Ammo... odamlar samimiylar, ko'ngli ochiq dillar lag'zalarga burkab xushnud qilagidan, dardlilarning vujudini ko'nglim sezayapti, bizlarni ham sog'lom odamlarga ko'shib siz soppasog'siz degan ochiq chehrasi qalblarni jumbishlarga soladi. Bu «ochiq chehralik insonlar samimiyligining bir omilli» degani! Demak, biz umrbod bir-birimiz uchun muruvvatga buyurilganmiz. Ochiq chehralik bizning farz amalimizdir. Ochiq chehra va tabassum insonlarga xos bo'lgan ko'rkm fazilatlarning biri.

*Unutmasman shifokorim Salamat Begalievni:
Shirin so'zli, ochiq yuzli, dardlarimga davodir,
Chehrangdag'i tabassum, menga bergen shifodir
Kulgan ko'zlarining mehrigiyoh kabi davodir.*

Men mazkur satrlarni bejizga ushbu to'rtlik bilan boshlamadim. Chunki, bir og'iz shirin so'z tushkunlikka tushgan har qanday insonning ruhiyatini ko'tarib, unga xush kayfiyat dardiga shifo baxsh etadi. Shuning uchun ham shirin so'z qudrati hayot bilan umri boqiydir, deb bejizga aytilmagan.

Darhaqiqat, to'rtlikning ilk satridagi shirin so'zning davosi degan ibora tibbiyot xodimlarining kasbiga munosabati, axloq-odobi, shuningdek, shifokor va bemorlar o'rtasidagi turli munosabatlarning asl mohiyati bo'lib, bu tibbiyotimiz tilida deontologiya deb yuritiladi.

Yuqoridagi fikrlarimni anglagan bo'lsangiz, ushbu mulohazam menga hayot bilan kurashishga undagan, hayot faqat darddan emasligi ongimga singdirgan kamtarona ochiq chehrali inson mening havaskorlarimdan biri Respublika shoshilinch tibbiy yordam ilmiy markazining (RShTYoIM) Nukus filiali bosh shifokori, tibbiyot fanlari nomzodi, neyroxiturg Salamat Maqsetbaevich BEGALIEV.

Bu ochiq chehrali samimiyligi meni taajjubga soldi, bolaligimdan nogiron bo'lgan bois juda ko'plab shifokorlarning xuzurlarga dardli qalbimga najot izlab borgandim. Nazarimda, har bir yaxshi shifokorlarning zahmatli mehnatlaridan el dardiga huzur topa olishi bundan ortiq bo'lmasa kerak? Nega bir xasta odam shifokorni birov maqtasa, dardiga shifo damlarini izlab topgandek sevinishgan. U inson har bir odamlarni kim bo'lishidan qa'tiy nazar alohida, ko'tarinki kayfiyat bilan qabul qilmog'i, yaxshi muloqotda bo'lmosg'i va nihoyat ochiq chehraligini so'zlaridan ilg'ob oldim.

Hamma bemorlar ham mehrga, e'tiborga muhtoj bo'ladi. Shifokorlarning ochiq chehrasi ukoldoridan ko'ra, qobuliga kelgan bemorlarning "Allohim shifosin bersin, tuzalib keting", degan yuragidan chiqqan har bir gaplaridan kuch oladi. "Yaxshi ekanman-ku, nega o'zimni behol sezadilar". To'g'risi, odamlarning gapi, daldasi bilan qalbiga katta bir umid boglovchi ipidur.

Men u kishiga judayam havas nigohim bilan qiyo boqaman xalq salomatligida yurgan bag'rikeng fidoyi, dardli insonlarning dardini mening ham dardim, butun umrini xalq salomatligi yo'lida baxshida etib kelayotgan insonlarning biri.

O'zining kamtar, samimiyligi, ochiq chehra, mehribon, mehnatsevar va jonkuyarligi bilan insonlar qalbining tubidan joy olib o'lgirgan shifokorim Salamat Begalievning hayoti, kamtorana mehnat faoliyati to'g'risida qanchalar gapirsamda ozlik qilaveradi.

U kishining odamiylik va insonparvarlik fazilati doim hurmat-e'tiborda, el og'zidan tushmaydi. Tibbiyotning siru-sinoatlarini yuqori chuqqilariga olib chiqishingiz uchun ulkan zafarlar, muvaffaqiyatlar el-yurt salomatligi yo'lida sidqidildan, fidokorona xizmat qilishingiz va samimiy ismiga mos buyuk mutafakir insonlarning saflaridan joy olishini o'ziga va eliga sodiq shifokor bo'lishiga shah shubham yo'q.

Xalq salomatligi uchun mardlik va shijoat ko'rsatish, yurtidagi jamiyki odamlarning sog'liqlarini tiklash – eng oljanob insonlar jasoratidir.

Unutilmas kun



Taqdir taqozosimi yoki har bir kishilarning hayotdagи sinovlarimi bilmadimu, menimcha hayot o'qilmagan kitobga o'xshaydi uni har kim o'zi varaqlab chiqishi umringizga bergen sahifalarning turfa xili. Hayotingizni har bir o'tkan damlarini maroq bilan varaqlar ekansiz yaxshi, yomon, g'amli, tashvishli, dardli, quvonchli, onglaringiz ko'z oldingizdan shamol yuzlaringizni mayin silab o'tadi.

Hayot kitobimning qaysi sahifasida yozilganini aniq bilmadimu, taqdir charxpalagini pirpir aylantirilgan ekan kimlargadur sog'lik, ilm, boylik, mansab, obro' hadya etadi ekan lekin kimlargadur bularning aksi bo'lar ekan.

Taqdirning o'ziga xos sahifasimi yoki hayotiy imtihonmi bilmadimu, men bolaligimdan II-guruh nogironi Avezov Salamat Yuldashevich 27-iyul, 1983-yili Qoraqalpog'iston Respublikasi Nukus shahri Amet o'g'li Yuldashning oilasida tug'ildim. Tashxisim ДЦП – (Детский Церебральный Паралич) BTsF –(Bolalar Tserebral Falaji).

Inson bolasi dunyoga kelar ekan, u mustaqil harakatlanish, yurish, o'qish yozishdan boshlab tabiat va jamiyatning barcha murakkab qonunlari bilan yuzma-yuz kelganda nimalar qilish kerakligicha o'rgatiladi, yoki butun maxsus o'qitiladi. Shu bilan birga umrimizning yarmidan ko'pini qamrab oladigan, hayotda chinakam to'laqonli insoniy baxtni in'om etadigan yoki har tomonlama intilishimizni rahbatlaydigan bizning kelajagimizga, baxtimizga qanot bo'ladigan bu – oilaviy hayotdir.

Oilada 8 kishi bo'lib yashaymiz dadam, oyim, ikki siiglim, bir ukam bir jiyanim va kelinim. Ota-onam o'rta ma'lumotli oddiy ishchilar oilasi.

Ha, ota-onaning bu pokiza suvratlari beg'ubor siyratli insonlar, ularning muqaddas nomlarini qalb qo'ri bilan tilga olaman. Hamisha ehtiromimni darig' tutmayman, samimiy so'zlarim bilan yondashaman.

Bolalik davrim asosan uyda o'tgan, hamma narsalarga qiziqishim atrofimdagilar g'ayrat bilan qarashi nimagadir intilayotganimni his qilishardi. Bir yoshimga to'lgan paytlarimda hamma qatori chechak otmoqlik nasib etmadni chog'i bir qadam ham yura olmas edim. Ayonki, men kabi bolalar va qizlarda tillarida ham nuqsoni bor.

Ota-onam har doim o'qitirishar edi. O'g'lim bu sening aybing emas, kim kasal bo'lishining ahamiyati yo'q oiladagilarning hammasi yordam beradi ju'ratl bo'l. Dunyoda har xil insonlar bor, ular orasida senga o'xshab yaxshi yurolmaydiganlar, gapirmaydigan yoki ko'zi ojizlar ham bor.

Yana bir misol o'qishga, sportga qattiq qiziqadigan odamlar ham etarli, yoki qoyillatib rasm chizadigan musavirlar, yozuvchilar, olimlar, ishchilar, bobo, buvilar, ota-onamga, aka, amma, xola, tog'alar o'z kasbini sidqi dilidan sevadiganlar ham bisyor.

Ana shu odamlarning hammasi birgalikda jamiyatni tashkil etadi. Shu ota-onamning aytgan pandu nasihatlari haligacha esimdan chiqmaydi. Menga qandaydir ilohiy kuch bag'ishlaydi. Ota-onamdan bir umr minnatdorman.

1987 - yil Moskva shahri Tayanch harakat qilish tizimi buzilgan nogiron bolalarni sog'lomlashdirish respublika markaziga olib bordilar. U yerda tengdoshlarim bilan davolandim. Hayot mo'jizalarga turfa xilligi bilan ajralib turadi. Allohning bergen shifosi bilan rahmatli buvum, onam va oilamning bag'riga o'z oyoqlarim bilan keldim. Hayotimdag'i hech unutilmas kunimning birlari ota-onamning g'am chekkan kunlarini hech unutmasman, farzandlar esa uning nomi bilan faxrlanib yursinlar.

1992 - yili Qoraqalpog'iston Respublikasi Davlat Ta'limiga Qarashli Nukus shahridagi №32 sonli o'rta maktabida 10 yil ta'lim oldim.

1997 - yili Qoraqalpog'iston Respublika nogironlar jamiyatining o'kuv ishlab-chiqarish korxonasi. Kompyuter savodxonligiga o'rgatish kursida o'qib «Operator IBM» shahodatnomasini oldim.

2002 - yili o'rta maktabni eksternat yo'li bilan muvaffaqiyatli tugatib 11 sinfning shahodatnomasini oldim.

2000-2002 - yillar Qoraqalpog'iston Respublikasi Davlat Ta'limiga qarashli Ta'limni rivojlantirish va ingiliz tilini o'rganish markazi «Progress»ning shahodatnomasini oldim.

2002-2004 - yillar Qoraqalpog'iston Respublikasi Davlat Ta'limiga qarashli Ta'limni rivojlantirish markazi «Progress» Biznes matabiga o'qishga kirib «Ish yurituvchi ingliz tili va biznes asoslari» mutaxassislik diplomini oldim.

2004 - yili Birlashgan Millatlar Tashkiloti va IATR/IREX tashkiloti hamkorligida «O'zbekiston maktablarida internet» dasturining №57 sonli Internet O'quv Markazining ko'ngiligisi bo'lib ishladim.

2005 - yildan buyon O'zbekiston «Kamolot» Yoshlar Ijtimoiy Harakati Qoraqalpog'iston Respublikasi Kengashi a'zosi. Qoraqalpog'iston Respublika «Nogironlar» jamiyatining ko'ngilligisi bo'lib ishladim.

2006 - yili «Kelajak ovozi» Respublika yoshlar tanlovida ishtirok etish uchun anketa topshirdim hayotimda birinchi marta bunday katta tanlovda ishtirok etishim edi. «Axborot kommunikatsiya va texnologiyalari» nominatsiyasi veb-dizayn toifasi bo'yicha qatnashib yangi veb-sayt yaratdim. Bu veb-sayt O'zbekiston Qahramoni, O'zbekiston va Qoraqalpog'iston xalq shoiri Ibroyim Yusupovning shaxsiy veb-saytini yaratib Qoraqalpog'iston Respublikasi saralash bosqichida III-o'rinni olib Respublika bosqichiga ishtirok etish uchun yo'lanma oldim.

Ming afsuslar bo'lsinki hayojonli daqiqalar ham etib keldi g'olib bo'lgan tengdoshlarim orasida menga joy yo'qligini his qildim ha, bu tanlov kimlargadur g'olib bo'lish nasib etadi, kimlargadur nasib etmaydi. Men hech ham ko'nglimni cho'kdirmadim xudo xohlasa kelasi - yili g'olib bo'laman deb o'zimga so'z berdim.

«Kelajak ovozi - 2007» tanlovida Qatnashib Qoraqalpog'iston Respublikasi saralash bosqichida II-o'rini olib Respublika bosqichiga yo'llanma oldim mana shu yil men qattiq tayyorgarlik ko'rdim tish tirnog'tim bilan kurashaman deb ahd qildim. Mana shu yili «Kelajak ovozi» tanlovining g'oliblikni qo'lga kiritganlar imtiyozli tarzda oliy o'quv yurtiga qabul qiladi degan qarorni eshitib juda hursand bo'ldim.

Mening bu dunyoda birdan-bir orzuyim men ham oliy o'quv yurtiga kirib o'zimning mutaxassisligim bo'yicha ta'lif olsam bu hayotda o'zimning o'rnimni topsam mustaqil ona vatanimga o'zimning oz mucha bo'lsayam hissamni qo'shsam baxtli his qilar edim.

Mening bilan tengdosh yoshlarni ko'rsam juda havasim keladi o'zi tanlagan kasbni egallab mustaqil ona diyoriga o'z hissalarini ko'shayapti. Zero davlatning poydevori mustahkam yurtning kelajagi buyuk bo'lur.

Respublikamizda iqtidorli yoshlarni qo'llab-quvvatlashga katta e'bor berilib kelinmoqda. Bu borada tuman, shahar, Respublika miqyosida har xil ko'rik-tanlovlardan tashkil qilinib g'oliblar munosib tag'dirlanmokda.

Men ham shular jumlasidan 2007 – yil «Kelajak ovozi» Respublika tanlovining «Axborot va kommunikatsiya texnologiyalari» nominatsiyasi veb-dizayn toifasi bo'yicha O'zbekiston Qahramoni, O'zbekiston va Qoraqalpog'iston xalq yozuvchisi To'lepbergen Qaipbergenovning shaxsiy veb-saytini yaratib «Kelajak ovozi – 2007» Respublika bosqichining g'oliblikni qo'lga kiritdim.

2007 – yildan boshlab «Kelajak ovozi» yoshtar tashabbuslari Markazi IT Club Axborot Texnologiyalari yo'naliishing faol a'zosi.

2008 – yil Toshkent axborot texnologiyalari universiteti Nukus filiali «Axborot Texnologiyalari» fakultetiga imtiyozli asosida o'qishga qabul qilindim.

21-iyun, 2012 – yili Toshkent axborot texnologiyalari universiteti Nukus filiali «Axborot Texnologiyalari» fakulteti 4 kursni muvaffaqiyatlidiplom himoyasini qildim. Hayotimdagidan hech unutilmas kun sifatida joy egallab qoldi desam mubolag'a bo'lmas edi.

Samimiylarning, samimiylarning chehrasi



— «Birodaringga samimiylarning chehra ila yuzlanish bilan ham yaxshlik qil» degan jumlaga e'tibor qilaylik. Aslida samimiylarning katta-kichigi bo'lmaydi. Lekin buyugi bo'larkan. Oramizda ana shu buyuk insoniylikka xos sohib va sohibalari bor. Yonimda kamtar hayot kechirib, halol mehnat qilib qo'llari mehnatdan tolmagan kishilarning biri.

— Yaxshi kishilar atrofdagilarning izidan boradi, qarindoshlarini hurmat qiladi, farzandlari, ukalarini tarbiyalaydi, qarindosh-urug'lariga mehr-oqibat va diyonatli bo'ladi. Bular bobomning mehri va umid bilan qalbiga ekkan ma'naviyat urug'ining yangi mevalaridir.

Avezov Mambetsali 1949 – yili 18-yanvar kuni Nukus shahri oddiy ishchi Avaz Amet o'g'lining oilasida tug'ilgan. Mambetsali otam mening eng qadirdon insonlarning biri, bag'rilariga bosgan paytlarida, negadur vujudim boshqacha bo'lib xuddi sog'lom inson kabi his qilaman go'yo o'zimni. Shu kabi insonlar olamda ko'p bo'lsa, o'ylaymanki atrofimda mehribon odamlarning samimiylarning chehrasini anglashimga sababchi bo'ladi.

Ota-onaga mehr-muhabbat, g'amxo'rlik, farzand tarbiyasi va oilaga sadoqat masalalariga alohida e'tibor berilgan. Kishilarni yaxshilik qilish, savob ishlarga qo'l urish, insofli-diyonatli, vijdonli

bo'lish, mehr-shafqatlilik, to'g'rilik, rostgo'ylik, sofdir bo'lish, birodarga yordam berish, kamtarlikka chaqirish bilan ajralib turadi. Ota-onam har doim shurlarni qalbinga joylashtirsang hech qachon hayotda qoqilmaysang deyishardi.

Ota-onam haqida katta bir kitob yozishga arziydi. Uta halol va mehnatsevar insonlar edi. Esimni tanigan paytim otam har bir xonadonning poydevorini, pechlarini qo'rib, uylarini oqlab berardilar. Ertayu kech qo'llaridan g'isht tushmasdi ish bilan band bo'lardilar.

Dadam Xorazmlik, onam To'rtkullik bo'lishgan. Oilada ikki farzand ulg'aydik. Opam Zilayho Ametova 1940 – yil Xorazm viloyati, Xonqa tumani tug'ilgan. – Mening sevimli buvijonim onamning mehribon onasi bo'ladi. Opam o'rta mакtabni tugatib uyda o'tirgan. Dadam oddiy suvoqchi hammamiz uchun ishladilar.

1953 – yili «Haqiqiy hayot insonni juda tez ulg'ayishimga majbur qildi», u paytlari esa endigani 4 yoshimda edim. Bular – bolalik xotiralarim deydi ko'zlaridagi yoshlarni mendan astagina bekitib. U dars tayyorlab o'tirgan, 13 yoshli opasining yonida o'tirib, mакtabga bormay turiboq savodini chiqardi.

1956 – yili unining o'qishga bo'lган ixlosi, intilishlari 7 yoshida Nukus shahridagi Qirq yillik o'rta mакtabida o'qishga bordim. Shahrimizda bittagina boshlang'ish mакtabi edi. A'lo o'qishim hayotga umid bilan qarashim so'ngi vaqtlarigacha hech yodimdan ko'tarilmaydi.

Shu paytlari o'qishning, qadring naqadar ulug'langanidan cheksiz bilim olish ummon kabi bo'loq ekanini o'qish va bilim uchun berilgan katta imkoniyat ekanini his qildim.

1958 – yili uchinchi sinfni muvaffaqiyatli tugatib, 4-sinfida tahsil olib yurgan kezlarim dedida da bir muddat suhabatimizga sukunat chuqdi.

1959 – yili edi. Onam rahmatli qattiq betob bo'lib yotib qoldilar men 10 yoshimda olamdan o'tdilar. Alloh ularni rahmatiga oлgan bo'lsin.

O'zi aslida oilamizda bola farzand dunyoga kelganida. Bilasizlar, shu yillar juda og'ir bo'lган. dadam mohir suvoqchi edilar. Taqdir taqozosi bilan oilamiz uysizlik, ijarama-ijara ko'chib yurishlar.

Keyin dadam Nukus shahri, O'zbekiston ko'chasida yerni sotib olganlaridan so'ng dadam o'z qo'llar bilan 3 xonali shinam qilib qo'rdilar, shagarga ko'chib o'tganmiz. Uyimizning yonida "Turon" stadioni bor edi. Bolalik yillarim tengqurlarim bilan tor tuproq ko'chalarda to'p tepardik.

Darvozalarimiz tosh va kesaklardan iborat bo'lardi. U paytlarda hozirgidek sharoitlar qayoqda deysiz. Yalangoyoq futbol o'ynardik. To'plarimiz ham rezinadan bo'lardi. Futboldan tashqari chillak, lanka, yong'oq kabi milliy o'yinlarimizni ham esdan chiqarmasdik. Keyin o'ylab qarasam, lanka o'yinining futbolga katta foydasi bor ekan. Lanka o'ynash orqali to'pni "jonglyor" qilishni o'rganardik. Endi urushdan keyinggi davrlar juda qiyin bo'lган. Yosh bo'lsak ham ota-onamizga yordam bergenmiz.

Oldin, ijarama-ijarada yashagan paytlarida na gaz, na elektr energiyasi, na suv ta'minoti muhayyo emasdi. Bir tongacha ko'mir tashib o'ttin terib yurgan kunlarim bo'lган. Bir chaqirim uzoqlikdan suv tashib kelardik. Bir so'z bilan aytganda, bolalik yillarim mehnat va qiyinchilikda o'tdi. Yuqorida ayttdim, uyimizning yonida "Turon" stadioni bo'lardi. Bu jamoaning uy uchrashuvlariga minglab tomoshabinlar kelgan. hamon kechagidek yodimda.

Dadam rahmatli har kimning uylarining pechlarini ishlardilar. Meni ham o'zlar bilan birga qurilishga olib ketardilar. O'sha paytda 14-16 yoshlariida edim. Vaziyat taqozosni oilaviy sharoitdimga yordam berishim lozim edim. Shuncha ish orasida ham futbolni unutib qo'ymadim. Keyin dadam yangi oila qo'rdirilar hayotinda har doim yo'ldoshing bo'lsin deb ism qo'yidi Yuldash 1961 - yil ukam tug'ildi.

— Shu o'rinda shuni aytib ketishim joizki Yuldash bu mening dadam ham do'stim sirdoshim bo'ladilar. Shunday eng katta natijalarimga erishimga dadam, oyijonim va Mambetsali otamning mehnatlari beqiyos cheksiz minnatdorchiligidagi bildiraman.

Maktabni 1966 – yili 10-sinfin tugatib. O'rtalma lumotli 1966 – yili Nukus Avtomobillar yo'llari texnikumi. "TOP – Технический обслуживающий ремонт", "TXK – Texnika xizmatlar ko'rsatish" bo'limida ta'lif oldim.

1969 – yili a'lo baholar bilan texnikumini muvaffaqiyatli tugadim. Hozirgi Avtomobillar yo'llari kasb-xunar kolledji.

1969-1972 – yillar Rossiya Federal Respublikasi, Moskva shahrida xizmat burchimni bajarish uchun harbiy xizmatni o'tadim.

— Otamning fikricha, har qanday haqiqiy yigit kishisi armiya saflarida, harbiy xizmat burchini bajarishda, ona vatan himoyasi qalqoni bo'lismi har bir fuqaroning farzandlik vazifasi.

Avtomobillar yo'llari texnikumiga o'qishga kirganda buyon hayoti texnika sohasi bilan chambarchas bog'liq.

1973 – yil «O'zqishloq kurlish texnikasi»ga ishga kelganida, faqat traktor, kombayn yuk moshin, paxta terish mashinalarning anjonlari har xil uskunalar bilan viloyatimizning barcha dehqon xo'jaligidaga mashinalarni kerakli anjonlar bilan ta'mishlash maqsadida texnik-mexanik bo'lib, dehqonlarga kerakli bo'lgan traktor, kombayn mashinalari bilan dalalarni so'rishi, suvg'orish ishga tushirishda bevosita ishtirok etdi.

Mutaxassis etishmasligi bois, har xil lavozimlarida ishладим, ба'zan hatto, kechalari traktorlarning chirog'ini yoqib dalalarda ishdan chiqqan moshinlarning anjonlarni ham yangisiga olmashtirishga to'g'ri kelgan kunlarim bo'lgan. Dalalardan uyga kelib kechasiyu qog'ozlarni titkilab, tong otganini sezmay ham qolardim.

Shu paytda dadamning menga bergen nasihatni yuragimning to'rida joy egallagan desam aslo mubolag'a bo'lmas edi. «Hayotda har qanday holatlar, kunlarga ro'para kelasan, shukr qil bolam, shukr qil. Odamning chin dildan qilgan mehnati besamara ketmaydi» deya gapini ilib ketardim. Halol mehnat, fidoyilik, kasbga sadoqat bir kun o'z so'zini aytar, mevasini berar ekan.

Bolalarim hayot yo'lini o'zlar tanlashdi. «Hech birin mana bu kasbning egallaysan» deb majburlasam bo'lardi, lekin bu – xato. Men ularning qalbiga qarab ish tutishga undadim, hayotning sir-sinoatlarini ongiga uqtirdim.

Qaysi sohasida bo'lmasa ham o'z kasbining mutaxassis. Ajab emaski nevaralarimning biri menin kasbimga mehr qo'ysa, u kun kelib menin kovushimni kiysa.

Xudoga shukr, oddiy mehnat orkali halol rizq topdim!. Umr yo'ldoshim bilan ikki o'g'il, bir qiz farzandlarimni voyaga etkazdik. Ularni birdek o'stirdim, uqli-joyli qildim. Sakkiz nafar nabiraning bobosiman. Ulardan to'rt nafari o'g'il.

Hozir ayolim bilan kenja o'g'limning qo'lllarida nevaralarga nasihatgo'y bo'lib, el-yurt haqiga duolar qilib xotirjamlikda yashayapmiz.

Inson qanoatli bo'lsa, mehnat qilsa, ota-onasi duosini olsa, kam bo'lmaydi. Ikki dunyo saodatiga erishadi...

Qalbi qirra, ko'zi ochiq insonlar



Insonning hulqi chiroyli bo'lishi uchun avvalo, uning qalbi pok va vujudi toza bo'lishi lozim. Chunki, qalb inson jasadining podshohi, qolgan a'zolar unga tobe'dir. Agar qalb ko'zi qirra bo'lsa, qolgan a'zolari ham zimziyo, agar ko'zi ochiq bo'lsa barcha a'zolardan noplak amallar sodir bo'ladi.

Odamiylik fazilatlari birordorlikning bir qancha funktsiyalarni bajaradigan ijtimoiy holatlarga taqqozlashimiz mumkin. Bu funktsiyalar ichida muayyan bir ilohiy kush doirasida mustahkamlangan bir-birilariga, ishonch, umid tizimi asosida dunyoqarashni shakllantirish funktsiyasi qam bor deb ta'kidlayman.

Ko'zi ochiq qalbi pok insonlar bobo-momolarning izidan boradi ularning mehnatini qadrlaydi, ota-bobolarning kasbini merosim deb davom ettiriladi. Ota-onasining qoldirgan yaxshi nomni farzandlari axloqi va odobi, halol mehnati, el o'rtasidagi hurmati, obro'-e'tibori bilan ulug'laydilar, ruhini shod qiladilar.

Qalbi qirra insonlar esa ularning aksi butun vujudi xuddi o'chokdag'i o'tin asta-sekin kul bosgani kabi bo'ladi. Agarda yon-atrofimizdag'i yuragi qora qalb qirra odamlarga terangroq nazar tashlaydigan bo'lsak, tabiiy ularning qalbi qora tutunlarga, yon-atrofdagilarga ko'z olaytiradigan kabi, boshqalargayam o'z ta'sirlarini o'tkazishlarini istaydilar turli nosog'lom qirra qalbli odamlar mavjudligini inkor etolmaymiz.

Oilamdilarning hammasi kitobxon oilasi, ayniqsa mening mehribon onam ko'p mutalao qiluvchilar saflaridan o'rinn egalaydi. Onam har doim qo'llindan kitob tushmasin bu sening qalb qo'rrin kelajak chirag'in nuru quyoshing deb hozirgi paytgacha ta'kidlaydi.

Shu bois O'zbekiston xalk yozuvchisi, Tohir Malik qalamining har bir nuqtasigacha ma'rifatga, ma'naviyatga ziyo nurini charog'onga etaklab kitobxonlarning ko'ngillarini manzur qilib mening ziyo istovchi qalbimnan joy egalagan yozuvchilarning biri hisoblanadi.

Har bir satr va mulohazangiz juda ta'sirli qilib ifodalangan buni o'qigan kishi ta'sirlanib ketadiki va bir daqqaq sukonat saqlaydi deb o'layman go'yo.

Insonlarning qalb qirri, hayot tarzi, hayotga bo'lgan ishonchi ularning ezgu niyatlarini va farishtalar kabi yashashi meni ichki olami, ko'zi ochiqligi yoki qalbi qirralari qiziqtiradi. ularning xayoli armonlari kelajagiga qarab talpinishlar, intilishlari ijdiga bo'lgan muhabbati ixlosu va sadoqati.

«Odamiylik mulki» kitobi qalbimning tub-to'ridan joy egallab hayotimning har daqiqasini o'zgartirib, mana shu ruhiyat olamiga ya'ni boshqa bir olamga olib kirdi desam aslo mubolag'a bo'lmas edim. Kitobdag'i qahramonlarining hammasi o'ziga bir olamni kashf etadi, ularning

orasida butun odamiylikning qiyofasi aniq akslantirgan. Qalb masalalariga doir bir qancha risolalar yozganlar.

Donolar demishlarkim: «Sen o'zingni ko'rmoq istaysanmi? U holda ko'zgudagi tashqi qiyofangga emas, ichingdagi ko'zguga boq..» Biz esa... kunda necha bor ko'zguga qaraymiz.

Qalbimizga-chi?

Qalbi ochiq chehra siz bilan uchrashayotgan odamga ham surur baxsh etadi, mehru-muhabbat uyg'otadi, qarshingizdag'i odamning ham qalbi ravshanlashadi, kayfiyati ko'tariladi (tajriba qilib ko'rsangiz bilasiz). Agar nogiron insonlarga qovog'ingiz solingen nigohingiz bilan sovuq muomalada bo'lsangiz, odamlar sizdan o'zlarini olib qochadilar, siz bilan o'tirib ham, suhbatlashib ham rohatlanmaydilar.

Ochiq chehra, qalbning yumshoq bo'l'mog'i esa bu dardga davodir. Haqiqatdan ham shu kabi odamlar atrofimizda kamdan-kam uchrashadilar. Shuning uchun ham odamlar qalb qirra kasalligiga mubtalo bo'l'ganlarga g'azabni keltiradigan, asabga ta'sir o'tkazadigan ishlardan uzoq bo'l'moqlikni tavsiya etadilar, chunki bunday holat kasallikni yanada ziyoda etadi. Ko'zi ochiq va chehrali, tabassum esa bu kasallikka barham beradi. O'zingiz malham qo'yishingiz mumkin. Men o'zgalardan yon-atrofimdagilardan, qorindosh urug'lardan toza qalb egalardan shifo so'rayman.

Sog'lom bo'l'ishning o'zi katta baxt



Insonga tortiq qilingan sezgi a'zolarini har birining o'z vazifasi bor. Ko'rish, ta'm bilish, iforni tuyish, eshitish, gapirish... Agar ularning birortasi bo'lmasa yoki me'yorida faoliyat ko'rsatmasa, dunyo ko'zimizga qorong'u ko'rindi.

Men sog'lom insonlarni ko'rsam, dillaridan ravon chiqayotgan so'zlarining tillariga ko'chirayotgan insonlarga har gal chinakam sog'lomligiga havasim keladi. Ayonki, tilida ham nuqsoni borlar jamiyatning eng oxirgi qatorlaridan o'rinn egallashi tabiiy xol.

Ularning har birining o'z joylari aloqida beqiyoslikni kashf ettiriladi. Agar shu dard menda bo'l'maganida edi, men ham shular qatorlaridan joy egallagan bo'lardim, balki o'zgalarning ko'magisiz mustaqil harakatlanishga, o'z fikrimni bildirishga boshqalar bilan dildan suhbatlashishga erishgan bo'lar edim.

Nega mana men degan sog'lom ham uddasidan chiqa olmagan ishlarni ular ya'niy men kabi nogiron qoyilmaqom qilib bajaradi? To'rt muchasida nuqsoni bo'la turib hayot degan maydoniga tushish, barcha g'am-g'ussani unutib, bir lahma orzular og'ushiga ko'milib umr gulshanidan bahro olish, ruhon sog'lom insonga aylanish qanchalik mushkulligini o'z-o'zidan ayon.

— Har doim hayotga bo'lgan aniq maqsadim bo'lgan. Mana shu maqsadim taqdirim shamchirog'iga aylanib qoldi. To'g'risi, bu so'zlarni yurakdan aytayotganimda mening ko'zlarimga ham esiz ketgan bir olam orzularim, chorasisizlik, ham shukronalik hissini hammalar ham payqash imkoniyatiga ega emaslar.

Bunday vaqtida odam o'zini tez o'nglab olishi, matonatli bo'lishi oson emas albatta. Har qanday bema'ni o'y hayollar, ruhiy zo'riqish kishini yutaman deydi.

BTsF – (Bolalar Tserebral Falaji) – davosi yo'q kasallik bo'lib atrofimdagilar ko'pchilikka ayon. Yaqinlarimning mahzun nigohi battar qiyaydi, qalbim achinish hissini sezaman.

Qanchalik mashaqqatli bo'lmasin, bunday qismatga bosh egib yashash uchun kurashish kerakligini tushunib etish uchun ko'p fursat kerak bo'ldi. Mening mehribon ota-namning daldasi ilohiy kuch baxsh etdi. Tashqi dunyo bilan taqqoslaganda endi hayot doirasi taroq ko'riniyapdi. Lekin shunda ham ko'p narsadan bebahra qolmayman va shunga harakat qilishdan charchamaslik lozim. Bu kasallik baxtsizlik emas, bor yo'g'i noqo'llaylik halos.

Shu o'rinda maktab chog'larimda sinfdosh, mahalladosh do'stlarim bilan sayr qilishni dildan suhbatlashib yurishni ular bilan barobar maydonda bemalol yugurib-yurugib futbol, basketbol, voleybol o'ynashni ularning saflarida bo'lishiga harakat qilar edim.

Lekin, qoqilmasdan qanday qilib yuray boshqalarning nigohini qanday qilib chalg'iltay, shular haqida qayta-qayta o'yladim. Undan tashqari tilim og'ir qanday qilib?, nima qilay?, keyingi paytlari insonlar bilan muloqotga kirishib ketish so'zlarimni tushuntirish qiyinroq bo'layapdi, judayam mushkullik tug'dirayapdi.

Mengayam ravon gapireshlarim nasib qilarmikan, qani endi kichkina bo'lsayam umid uchqinini ko'ra olsam, buyog'iga qanday qilib odamlar bilan muloqotga kirishib ketaman, mana shu dard sababli butun kelajagimga to'sqinlik qilayotgandek. Bu haqida ko'p o'yladim, lekin qanchalik qayg'uli bo'lmasin bu boringki haqiqat.

Har qancha harakatlarimni qilsam ham baribir, bu dardimdan kutila olmayman. Endi har qanday vaziyatlarda ham ortqa qaytgan taqdirimdayam vaqt ni so'rolmayman. Shuning uchun ham o'zimni qanday holatda bo'lishimnan qa'tiy nazar, borimcha qobul qilaman.

Oilam atrofimda bo'lган vaqtida menga ular qanchalik g'animat ekanligini ota-onamning mehr tabassumlarini ko'rsam, ayrim qorindoshlarimning qo'llari shunchalar iliqligini his qilaman. Sog'likga kelsak shunchaki sog'lom bo'lishning o'zi ham katta baxt ekan.

Bu dardning paydo bo'lishi nafaqat sog'lom odamni balki jismimni ham yo'qolishimni anglatadi. Endi mana shu dardni, shu tanamda ko'tarib yuraman o'zimga ishongan holda. Shu hayotiy yo'llaridan yorug'lik topishimni judayam xohlayman.

Aynan shu dardimga yolg'iz siz, o'zingiz malham qo'yishingiz mumkin. Men o'zgalardan, boshqa qalblardan shifo so'rolmayman. Sizni topgunga qadar Yashadimmi?.. Kulyapsiz-a? «Juda yaxshi yashayapsiz» dedingiz-a?.. Topdimmi?.. * * * ... topdingiz. Uch misrali she'rni qaerda o'qidingiz? Hammaning havasi keladigan Sizdek sog'lom odamga shunday kayfiyatga tushsa, boshqalar dodini kimga aytsin?.. O'zim yurgan yo'limda uni beixtiyor takrorlaydigan bo'lib qoldim.


Dard – taqdir taqozosi bilan ota-onaning yuragida ko'milib yotgan orzu-istiklarini farzandlik burchimni to'la-tukis bajarmayotganidan xo'rsinish hissini sezaman.

Samimiyoq qoq'ozni qoralab yozishimga o'zimda qandaydir kuch izlashimga jazm qildim, umuman hayotga bo'lган sog'lom yondashuviga ishonch komillikka intillib katta umid bilan yondoshishning, o'zimning ilk tasavvurimda nogiron emasligim, toza qalbli, o'qishga bo'lган qiziqishim va samimiyoq bir inson safatida o'zimning aksimni ko'ra olaman. To'rt mucham to'kis bo'lmasam-da, hech kimdan kam emasligimni qalban his qilaman.

Yozuvchi Asqad Muxtorning «Qanday yaxshi, hamma uchun yashash!» degan misralari bor. Shu satrlarida teran mavnoga ega, hayot maktabining har bir nozi ne'matlaridan bahro olish, yaxshi

yashash uchun kurashimizdan hech to'xtamasligimiz zarur. Zero, o'zimiz anglagan hayotiy haqiqatlarni o'zgalarga ham singdira bilsak, odamlarga ezgulik ulashsak, umrimiz sahifalarini yangicha bir mazmun bilan boyitgan bo'lamiz.

Baxtsizlik ham baxt



Baxt deydi baxt bormi o'zi yoki yolg'onmi? U nima o'zi qo'l etmaydigan armonmi? Baxtim deb insonlar talpinadi, qalbiga cheksiz quvonch to'lganida, baxtli bo'l deb tilaklarni ishor qiladi. Baxtga erishish, tilaklarni bir mushdim yuragimizga jo qilish mumkinmi. Baxt boylik ham emas baxt ham emas. Baxt degan pul ham emas taxt ham emas. U bir hissiyot pok yuraklarda uy qo'rilladi. Uni his qilmasan borda emas yo'q da emas.

Insonlarda shunday tushuncha ongilariga jo qilib olgan. Tashqi go'zallik yoki qalb go'zalligi, mana shu jihatlarini ham e'tiborga olish kerak. Keng umumlashtirilgan holda ayrim odamlar o'zilarining tashqi ko'rinishini baxtsizlikka ro'kach qiladi. Hamma qatori sog'lom ekanligining o'zi qalb go'zalligining nishoni emasmi.

O'ylab qaralsa, dunyoda «men baxtliman» deydiganlar juda ko'p. Ammo «baxtsizman, peshonam qursin, nogironlik tang'asi ko'ksimga toshdek qotgan» deb noliydiganlarni ham ba'zida uchratib qolamiz. Axir baxtsizlik ham baxt emasmi. Nega shunday? O'zimizni baxtsiz hisoblashimizga «bir kam dunyo» aybdormi yoki tobora hakalak otib borayotgan nafsimizmi?

Ergash BOBORAJAB ijodida mazkur baxt mavzu shunday qalamga olinadiki, ularni sanab adog'iga etish qiyin. Shoirning qalb daftaridagi nozik sahifalarni asta-sekinlik bilan varaqlay boshladim.

*Baxt boshqa, baxtsizlik boshqa-boshqadir.
Bardavom, barhayot bo'lmoq boshqadir.
Bundan boqiylikka borsak barimiz,
Barcha birdek bo'lmas, bayot boshqadir.*

Baxt tushunchasi har kim uchun alohida mazmun kasb etadi. Aytaylik, ko'zi ojiz odamning baxti bilan ko'z nuridan ayrilmagan, tilida nuqsoni borlarchi, Yax-shi rah-mat... — deb bosh silkidib qo'yaveralardilar bir gapni ravon aytish odamning Ba-xt so'zi huzur bag'ishlaydi. Sog'lom odamning baxt haqidagi tasavvur va o'lchovlarida katta farq bor. To'rt muchasi sog' odamlarga havas qilib o'tadigan nogironlar uchun tana a'zosining salomatligi hech narsaga alishib, hech nimaga tenglashtirib bo'lmaydigan bir baxtdir.

*Boshqa bayot baxtingni borini berar,
Beorom baxt bo'lmas, barini berar.
Bani bandalar-ku bundan baxtiyor,
Berilgan bu baxt uchun barini berar..*

Ba'zi insonlar ko'rib achinish hissini qalbinga tuymoqlikdan o'zga chorang yo'q, ko'cha quyda endi kurtak yozib yosh nihollardek o'sib o'lg'ayotgan yigit-qizlar spirtli ichimliklar ichish, tamaki va nos chekish, giyohvand moddalarni iste'mol qilish singari zararli odatlarning oqibatida baxtsizlik so'zini o'zlarini oqlash ya'niy qurol sifatida foydalanishdan ham toymaydiganlar bisyor. *Баъзи бирорларки баҳтсиз бўлишар,*

Berilgan baxtga-da basir bo'lishar.

Bunday bandalikdan bezdirgil Barhaq,

Bundaylar baxt bo'lsa botir bo'lishar...

Avvalo bu odatlarni uni o'zlashtirgan shaxs boshqarsa, vaqt o'tishi bilan zararli odatlar shartli ravishda uni boshqaradi. Ya'ni inson o'zi-o'zini baxtsizlikdam ham mahrum bo'lishi tayin. Baxtning nimaligini noqobil farzandlarining mehrsizligidan aziyat chekib, dardini birovga aytolmay, yuragi qon bo'lib yurgan odamlardan so'rang-chi!

Dunyoning rohati ham ko'p, azoblari ham oz emas. Lekin inson yuksalishi ne-ne mashaqqat va azob o'qibatlar bilan qaddini tiklashi shularning biri.

Baxtning nimaligini bilmoqchi bo'lsangiz olti qator misralarini qalbingizdagi kundalik daftar ya'niy yuragingizga yozib qo'yishni o'zingizga joiz deb biling va boshqalarni ham shunga baralla ovoz bilan unday biling.

Baxt – insonni yuksaltiradi.

Baxt – kunlariga ko'rk beradi.

Baxt – umr lahzalaridan birining ismi.

Baxt – hodisa emas.

Baxt – ma'naviy ehtiyoj.

Baxt – inson ko'nglining eng chiroylı mulki.

Bilmadim, menimcha hammasi inson o'zi qanday hayotni, qanday yo'lni tanlashiga bog'liq, deb o'ylayman. O'ylashimcha inson hamisha to'g'ri yurib, to'g'ri fikrlasa, ota-onasidan, yon-atrofidagilardan namunalar olishsa, hammasi shunga bog'liq bo'lsa kerak.

Hech qachon o'zi baxltiman yoki baxtsizman deb hisoblashi kerak emas! Shuning uchun ham, hayotning baxtligini, baxtsizligini yurakdan sezmaydilar.

Albatta, bu baxt! hayotimizda reallik yo'q, kim uchundir siz baxtlisiz, kim uchundir yagonasiz. Kim seni baxtligini payqashi esa, bu insonning o'ziga bog'liqdir. Men hech qachon, baxtli insonlarning taqdiri baxtsiz bo'lmaydi, degan fikrga qo'shilmayman!

Agar insonning mehnatsevarligi ortida hech narsa bo'lmasa, o'sha mehnatsevarlikdan boshqa jihat bo'lmasa, shundagina u baxtsiz bo'lishi mumkin! Inson, o'ziga men nogironman, shuning uchun baxtsizman deb, fikrlab singdirmasligi kerak. Chunki, hayotda hamma narsa o'zimizga bog'liq.

Kim seni nogironligini pesh qilsa, u odamlarning bir-birilariga bo'lgan odamiylik fazilatlariga bog'liqdir.

Dunyoda baxtli inson bo'lib yashasam,

Dardimning shifo damlarini kutsam.

Sog'lom bo'layin deb intilsam zinhor,

Yo'qotmasdim o'sha sog'lik baxtni,

Men hech qachon nogiron insonlarning taqdiri baxtsiz bo'lmaydi degan fikrga qo'shilmayman! Agar sog'lom bo'lsang, seni shunday sog'lom qilib dunyoga keltirgani va voyaga etkazgani uchun o'z onangga minnattorchilik bildir, shunday yaratgani uchun Allohga shukur qil. Lekin, inson tashqi ko'rinishdan tashqari, ham qalban go'zal, e'tiqodli, aklli, yaxshi inson bo'lsa bu katta baxt!.

Bobomning mehnatdan qadoqlagan qo'llari. Salkam sakson besh yoshida...



Oila poydevorini barbod qilishi er bilan ayolning baxtli bardavom hayot kechirilishlari uchun bir necha omillariga chambarchas bog'liq. Ularning eng asosiysi, shubhasiz sabr, qanoat va tinimsiz mehnatdir deb mehnatdan qadoqlagan qo'li bilan oq oralagan qoshlarini ohista silay siniq ohangda hayotiy hiqoyasini boshlab.

Oila mustaqkam bo'lishi uchun ushbu baxt qo'rg'onining har bir g'ishti sabr ko'shib qorilishi eng asosiysi mehnatdan ochmaslik kerak. Har bir qilingan mehnat kishi ruhiyatini sabr va mittindan jilovlay oladi. Sabr to'la ulkan qopni elkanga ortmoqlab yurishi zamirida katta mehnat yotishini his qilish zarur. Oila qo'rg'onimiz uzoq vaqt turmushning izg'irin shamol va yomg'irlarida nurlab ketmasligini istasak, uni sabr atalmish poydevor ustiga barpo qilishimiz darkor.

— Biz insonlar yillarni quvib yoshimizga yosh qo'shib ulg'oyotganimizni sezmay qolayotgandaymiz, o'z tashvishlarimizga hayot degan nomni o'zlarimizcha gina qilib aksariyat hollarda yon-atrofimizdag'i keksa nuroniylarimizni, otaxonu-onaxonlarimizni, bobojon-buvijonlarimizni shu olamga kelishimizga sababchi bo'lган buyuk insonlarga boshqalarning nazari bilan qarashni bilamizu.

Ammo.. o'z farzandlarimiz va nevalarimiz bilan bo'lib o'z ota-onalarimizdan hol-ahvol so'rashishni ular bilan dildan samimi suhabatlar qo'rishni unutib qo'ygandekmiz.

— Bu kamchilik, mening nazarimda, har bir oilalarda bor hisob, faxriylik gashtini sursalarda ijtimoiy hayotga moslashuvlarida biz farzandlar qo'llayliklar yoratib berishimiz oliy burchimiz ekanin ayrimizning hayollarimizgayam keltirmaymiz. Bu borada oilaviy qadriyatlarimizni bir-birilarimizga mehr-oqibat rishtalari mustahkamlashida, ziyoratchi o'zi uchun ibrat va saboqlarini olib boshqalarga o'rnak bo'ladi, desam yanglishmayman.

Axir, jamiyatning asosini turli kasb zgalarini bo'l mish oddiy insonlar tashkil qiladi-ku? Ishchi, dehqon, haydovchi, oshpaz, sartarosh, farrosh. duradgor usta, chilangar. qorovul, etikdo'z va hakozo kasb egalari son jihatidan ham ko'pchilikni tashkil qilsada, ularning hayotiy tajribalarini o'zlarimizga ma'lum darajada namunalarni olib hayotimiz uchun qamrab olamayotgandek tuyuladi.

— Bobojonim haqida yozishga jazm qilib, salkam 85 yoshga yaqinlashib kolgan bir buyuk inson haqida hikoya qilmoqchiman. Men shu haqda negadir o'ylab yurardim.

— «Eng faol faxriy insonning biri» deb mendan so'rab qolsangiz, hech shubhasiz, avvalo hayotimdag'i qadrdon insonim Rajab bobom Olloberganov ismi-sharifini tilga olgan bo'lardi.

— Nega desangiz, «u insondan o'zimga kerakli bo'lgan hislatlarni jo qilib dardimning shifosini so'zlaridan malham sifatidan foydalana hayotning haqiqatini teran anglayman».

— Darhaqiqat, shunday. Men Rajab bobomning har safar xonodonlariga tashrif buyurgan paytlarimda, u bilan bafurja choy ustida yangi tondirdan uzulgan non singari qaynoqina hayotiy hikmatlarni, hikoyalarni so'zlay suhabatimiz qizg'in ravishda o'tadi. Hayot yo'liga doir

ma'lumotlarni har safar so'zlab bergani bois yod bo'lib ketgan, uning rang-ro'yidan aks etib turgan tetikligini, bardoshligining sababini o'zimcha izlayman.

Samimiylilik, beg'uborlik bolalarcha soddaligi ochik, ko'ngillilik, dilkashlik kabi insoniy fazilatlar ruhiy tetiklikni, salomatlikni saqlab qolishda muhim ahamiyat kasb etishini eslatgim keladi.

— Rajab bobom bilan samimiyl suhbatlashar ekanman, uning mehnatsevarligi, yoshligidanoq hayotning achiq-chuchugini ko'p tatigan, ko'p qiyinchiliklarga bardosh bergen bolalik va yoshlik damlari nima ekanini bilmay, ota-onasi va jigarlari uchun tinmay hayotning harakatida bo'lgan buyuk inson ekanligini bobomning mehnatdan qadoqlagan qo'llarini nazarimni solib chuqir o'ylariga tolaman.

Men To'rtko'l tumanidagi Sho'raxon qishlog'i hududida 1928 yilning 20 dekabrida tug'ilganman, — deb Rajab bobom o'z hayot yo'li haqida hikoya qila boshladи, — kambag'al dehqon oilasida ulg'aydim. Bolalik, o'smirlik davrim og'ir urush yillariga to'g'ri keldi. 1941 — yili ikkinchi jahon urushi boshlanganida 6-sinfda o'qirdim. Urush tufayli o'qishlar to'xtab qoldi. Uy ishlariga ko'maklashib yura boshladim. So'ng «Komintern» kolxozida ishlay boshladim. O'sha yillardagi kolxozda bitta Traktor-ChTZ bor edi. So'ng «Farmol» traktori keldi.

1940 — yili To'rtko'l shahrini Amudaryo suv toshib batamom vayron qildi. Eski To'rtko'l chiroyli shahar edi, afsus, suv balosidan omon qolmadi. Hozirgi To'rtko'l yangidan qad rostlagan shahar. To'rtko'l urushdan burun respublikamiz poytaxti edi. Shaharni suv olgach, yangi poytaxt Nukus shahri barpo qilindi To'rtko'lda harbiy komissariatda ham ishладим. Povestka tarqatardim. Harbiy komissariat boshlig'i Gritsov degan bir polkovnik edi. Uning o'rniga so'ng Davlet Eshimbetov kelib ishлади. Keyinchalik u respublikamizning taniqli rahbarlaridan biriga aylandi, buni ko'pchilik bilsa kerak. Otam Roman Olloberganov aeroportda 40 yil faoliyat ko'rsatganlardan. 1951 yili aeroport Xo'jayli tumaniga hozirgi go'sht kombinati joylashgan hududga ko'chirildi. Bizlarning oilamiz ham shu yili To'rtko'lidan Xo'jayliga ko'chib keldi.

Men 1954 yili mashina haydovchisi kasbi bo'yicha ta'lim oldim va o'qishni tamomlab, mashina hayday boshladim.

1958 yili Nukus shahriga ko'chib keldim. Avval Xo'jayli go'sht kombinatida, so'ng Nukus aeroportida shoferlik kasbida faoliyat yuritdim.

1978 yilgacha shu yerda ishладим. Kasallanib, og'ir operatsiyani boshdan kechirdim. Nogironlikka chiqib, ishni qo'ydim. Ammo oshpazlikni egallab, to'ylarda-ma'rakalardi palov pishira boshladim. Oshpazlik sirlarini o'rganib oldim. Yoshim birozga borib qolsada, oshpazlikni tashlamadim.

1958 yili Zulayho Ametova degan to'rtko'llik qizga uylanganman. Namunali oila qurdik desam haqiqatni aytgan bo'laman Yulduzimiz yulduzmga to'g'ri kelgan. Olti nafar farzandni voyaga etkazdim. Katta qizlarimning biri Oygul hamshira, Ra'no muhandis, kichik qizim esa Gavhar, ug'lim Farhod hisobchi, Azimboy va Baxtiyor shofyor. Mehnat bilan band bo'lish insonni ko'pgina ko'ngilsizliklardan chalg'itadi. Hayotda to'g'rilik va halollik shiorim bo'ldi. Shunga amal qilib, kam bo'lganim yo'q.

Rajab bobom o'z hikoyasini shu yerda to'xtatib bir jilmaydi-da yana davom etdi: «Sizlar mening ko'zimning qorachig'imlarimsiz umrimning davomchilarisiz» Bu ulug' kunlarni ko'rishi ne'matining zamirida mehnatlarim beqiyos, xudoga ming qatla shukr, 14 nevarali, ikki evaramning katta bobosi bo'ldim. Aytmoqchimanki, mustaqillik davrining farzandlari safida

mening ham nevaralarim, evaram borligidan, kelgusida ular yurtimizning munosib insonlari bo'lib yetishishlari haqida o'y surib, ular uchun barcha sharoitlar yaratib berilganligidan xursand bo'laman. Umrим bekorga o'tmabdida deb qo'yyaman.

— Darhaqiqat, Rajab bobom aytganidek, xonadonda sabr-qanoat va mehnat doimo yonma-yon yuradi. Bu o'rtadagi mehr-oqibat rishtalarini mustahkamlaydi, diydor g'animat ekanini menga har doim eslatib turadi...

Mundarija

MEHRGA TASHNA NURLI QUYOSH	4
MEHR BO'LSIN YOR.....	6
QALB MAKTUBI.....	7
QALBIMIZ TO'LAIFTIXOR.....	9
OCHIQ CHEHRA.....	10
UNUTILMAS KUN	12
SAMIMIY INSONLARNING, SAMIMIY CHEHRASI.....	14
QALBI QIRRA, KO'ZI OCHIQ INSONLAR	17
SOG'LOM BO'LISHNING O'ZI KATTA BAXT.....	18
BAXTSIZLIK HAM BAXT.....	20
BOBOMNING MEHNATDAN QADOQLAGAN QO'LLARI. SALKAM SAKSON BESH YOSHIDA.....	22